

O b y e k t n i q o ' r i q l a s h
Sh A R T N O M A S I

Buxoro sh.

JSh 40 -son

«12» yanvar 2022 yil.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi, boshqarma boshlig'i **Sh.A.Jumayev** (keyingi o'rnlarda «**Ijrochi**» deb yuritiladai) bir tomonidan, Buxoro davlat muzeyi qo'riqxonasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi Buxoro davlat muzeyi qo'riqxonasi direktori **B.B.Nasimov** (keyingi o'rnlarda «**Buyurtmachi**» deb yuritiladi) ikkinchi tomonidan, birgalikda «**Tomonlar**» deb yuritiladi, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1-bob. ShARTNOMA PREDMETI.

1. Ijrochi Milliy gvardiya qo'riqlash xizmatining saf bo'linmasi posti hamda TQP orqali, mulkni qo'riqlash, kirib chiqishni nazoratga olish xizmatini ko'rsatish majburiyatini, **Buyurtmachi** esa mazkur Shartnomma shartlariga asosan o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

2-bob. UMUMIY ShARTLAR.

2. Buyurtmachi, obyektlarini qo'riqlash uchun ijrochiga topshiradi, Ijrochi esa quyidagi tartibda qo'riqlashni tashkil etadi:

- Buxoro shahrida joylashgan ARK muzeyini Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi tomonidan 1 ta 24 soatlik Qo'riqlash boshqarmasining saf bo'linmasi posti orqali;

- Buxorq shahrida joylashgan Moxi-xossa muzeyini Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi tomonidan 1 ta 24 soatlik Qo'riqlash boshqarmasining saf bo'linmasi posti orqali;

- Buxoro shahrida joylashgan Tasviriy san'at muzeyini Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi tomonidan 1 ta 24 soatlik Qo'riqlash boshqarmasining saf bo'linmasi posti orqali;

- Romitan tumanidagi O'lakashunoslik muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Romitan tuman qo'riqlash bo'limi TQP orqali;

- Buxoro shahridagi Somoniy bog'idiagi Chashmai Ayub muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;

- Buxoro shahridagi F.Xo'jaev uyi muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;

- Buxoro shahridagi Somoniy bog'idiagi Al-Buxoriy muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;

- Buxoro shahri M.Anbar ko'chasidagi Temirchilar muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;

- Buxoro shahri Ark muzeyidagi Tarix bo'limini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;

- Buxoro shahri Ark muzeyidagi Fond bo'limini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;

- Buxoro shahri B.Naqshband ko'chasidagi M.Attor muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;

- Buxoro shahri Buxoro adabiyoti tarixi muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;

- Buxoro shahri Kulolchilik san'ati tarixi muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;

- Buxoro shahri M.Burxonov uy muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;
- Buxoro shahri Buxoroda huquq va qonunchilik tarixi muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;
- Buxoro shahri san'at va etnografiya ilmiy bo'limi muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;
- Buxoro shahri Elchixonha hovlisi muzeyini faqat ish kunlari 8 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi tashvish tugmasi orqali;
- Buxoro shahri Yog'och o'ymakorligi tarixi ko'rgazmasi muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;
- Buxoro shahri Hattotchilik san'ati tarixi muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali;
- Peshku tumanidagi Abu Ali Ibn Sino me'moriyal muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Peshko' tuman qo'riqlash bo'limi TQP orqali;
- Kogon shahri Naqshbandiya tariqati muzeyini ish kunlari 9 soat, dam olishdan oldingi kun 10 soat, dam olish kuni 10 soatdan QB Buxoro shahar qo'riqlash bo'limi TQP orqali qo'riqlashga qabul qiladi.

3. Obyektning qo'riqlash chegaralari (imoratlari, qurilmalari), postlarining (yo'nalishlari) joylashuvi chizma-rejada ko'rsatiladi va mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Obyektdagi kirish-chiqish, ichki obyekt rejimi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadigan kirish-chiqish va ichki obyekt rejimini tashkil etish yo'riqnomasiga muvofiq amalga oshiriladi hamda mazkur Shartnomaga ilova qilinib uning ajralmas qismi hisoblanadi.

5. Obyektni texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlash va ta'mirlash Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi, texnik qo'riqlash vositalari Ijrochining aybi bilan ishdan chiqqan hollar bundan mustasno. Obyektni yong'indan qo'riqlash va xavf-xatar signalizatsiyasi bilan jihozlash chizmasi mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

6. Obyektni qo'riqlashda Buyurtmachi bilan kelishilgan holda soqchi itlaridan foydalanish mumkin.

3-bob. TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH.

7. Mazkur Shartnomaga asosida ko'rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga mos holda quyidagicha hisoblanadi:

-post-soat hisobida qo'riqlash xizmati bir oyiga **161 236 000** (bir yuz oltmis bir million ikki yuz o'ttiz besh ming to'qson) so'mni tashkil qiladi.

- Qo'riqlash xizmati uchun hisob-kitoblar, mazkur shartnomanining grafigi asosida budjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida to'lanadi.

2022 yil 3 oyi uchun.	1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr
Jami: 483 705 270	161 236 000	161 236 000	161 236 000									

8. Ijrochi xizmatlari uchun to'lovlarga o'zgartirishlar kiritish, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'mondoni tomonidan, qonun hujjalariга muvofiq ushbu xizmatlar uchun yangi tariflar tasdiqlanganda, hisob-smetalar mazkur tarif asosida qaytadan tuziladi.

9. "Buyurtmachi" qo'riqlash xizmati uchun oylik to'lovnini, navbatdagi oy boshlanishidan 10 kun oldin (ya'ni har oyning 20 sanasida), shartnomaning umumiy summasining 100% miqdoridagi pulni «Ijrochi»ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

10. Qo'riqlash xizmatlari uchun pul to'lashga «Buyurtmachi»ning mablag'i bo'Imagan holda, yuqori tashkilotlarning markazlashgan fandlari hisobidan qarzdorlik bartaraf etiladi.

11. Buyurtmachi mazkur Shartnomaning 10-bandida ko'rsatilgan oylik to'lovnini o'z vaqtida to'lamasa, Ijrochi Buyurtmachiga akseptsiz to'lov talabnomasini taqdim qilishga haqlidir.

Mazkur Shartnoma bekor qilinganda hamda har oyning yakuni bilan, **Ijrochi Buyurtmachi** bilan to'langan to'lovlari bo'yicha, qayta hisob-kitobni amalga oshirishi zarur (ya'ni taqqoslash dalolatnomasi tuzilishi).

4-bob. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

12. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

Ijrochidan belgilangan qo'riqlash tartibiga rioya etilishini talab qilish;

xizmat ko'rsatish jarayonida Ijrochining xodimlari tomonidan intizomni buzish holatlarini to'xtatish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha kerakli choralar ko'rinishini Ijrochidan talab qilish;

Ijrochining xizmatni tashkil qilishi va amalga oshirishini, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini nazorat qilish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma shartlari buzilishining har bir holati bo'yicha Ijrochining vakili ishtirokida 2 (ikki) nusxada dalolatnomasi tuzish;

Ijrochining aybi bilan yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlangan aqdirda Ijrochidan ularni bartaraf etishni talab qilish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma talablari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni undirish. Zararni qaytarish uchun, tergov yoki sud idoralarining ushbu holatlar yuzasidan chiqarilgan qarorlari asos bo'ladi.

13. Buyurtmachining majburiyatları:

Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan ko'zdan kechirish dalolatnomasiga asosan qo'riqlashga topshiriladigan obyektni, alohida xonalarni texnik mustahkamlash bo'yicha tadbirlarni bajarish, o'z hisobidan texnik qo'riqlash vositalari (obyektning turiga qarab post qurilmalari va uni isitish uskunalari, postlararo aloqa, ichki va shahar telefonlari, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi, obyekt perimetri bo'ylab kerakli yoritish vositalari, quflar, turniket, kuzatish maydonchasi, shaxsiy tekshirish xonalari, ishchi va xizmatchilarning shaxsiy buyumlarini saqlash xonalari, yong'in o'chiruvchi vositalar va boshqalar) bilan jihozlash va zarur hollarda ularni ta'mirlash;

har qanday moddiy qimmatliklarni obyekt hududining devor to'sig'idan 15 metr uzoqlikda (obyekt joylashuvini hisobga olgan holda) joylashtirish;

Ijrochi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta obyektning texnik mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanganini, shu jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi holatini tekshirish ko'rigin o'tkazish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari, Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda Tomonlarning vakillari ishtirokida dalolatnomasi tuzish;

belgilangan qo'riqlash rejimi talablarini bajarish va texnik qo'riqlash vositalarining tegishli holatini ta'minlash;

binoda rejalashtirilayotgan kapital ta'mirlash ishlari, obyektlarni qayta jihozlash, ish rejimini va ishlar profilini o'zgartirish, moddiy qimmatliklarni saqlash joyini o'zgartirish yoki yangilarini ochish, obyekt yoki uning bir qismini boshqa shaxslarga ijara berish yoki mulk huquqini o'tkazish, qo'riqlash turini, postlar dislokatsiyasini o'zgartirish yoki qo'shimcha qo'riqlash signalizatsiyasi vositalarini o'rnatish bo'yicha tadbirlarning o'tkazilishi haqida Ijrochini bunday ishlarning boshlanishidan kamida 30 kun oldin ogohlantirish;

obyektda ish kuni yakunida qo'riqlash signalizatsiyasini yoqish, uning nosozligi holatida bu haqda Ijrochini ogohlantirish va nosozlik bartaraf etilmagunga qadar obyektni tashlab ketmaslik va belgilangan tartibda qo'riqlashga topshirish. Obyektni qo'riqlashga topshirganlik

haqida TQPni xabardor qilib, 5 daqiqadan so'ng obyektning qo'riqlashga qabul qilinganligiga ishchonch hosil qilish (agar obyektda qo'riqlash signalizatsiya vositalari o'rnatilgan bo'lsa);

obyektni, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlangan har bir alohida xonani kundalik qo'riqlashga topshirish, eshiklar qulfi, derazalar, darchalar, lyuklar, ventilyatsiya teshiklari yopilganligini hamda avtonom qo'riqlash signalizatsiyasini va hududning yoritilishi holatini tekshirish, qo'riqlanadigan biñolarda elektr jihozlarining, boshqa yong'in manbalarini yoqilgan holda qolib ketishining oldini olish va begona shaxslarning obyektda qolishiga yo'l qo'ymaslik;

qo'riqlanayotgan hududda binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatda qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qo'riqlashga topshirish;

maxsus jurnalda o'z vakili tomonidan imzo qo'yish yo'li bilan obyektlarni, alohida xonalarni qo'riqlashga topshirish, qo'riqlash tugagandan so'ng qo'riqlashdan chiqarish;

qo'riqlanadigan xonalarning butunligi buzilganligi haqida yoki obyektga begona shaxslarning kirishi natijasida zarar yetkazilganligi alomatlari mavjud bo'lganda zudlik bilan Ijrochini xabardor qilish va obyektga Ijrochi vakili yetib kelguniga qadar ko'rsatilgan joylarning daxlsizligini ta'minlab tezkor xizmatlarga xabar berish;

begona shaxslarga qo'riqlash va signalizatsiya tamoyillari va tizimini, shuningdek berilgan pult raqamlarini oshkor qilmaslik (agar obyektda qo'riqlash signalizatsiya vositalari o'rnatilgan bo'lsa);

Ijrochi vakillarini obyektdagi ichki tartib va texnika xavfsizligi qoidalari bilan ularning o'z vazifalarini bajarishiga oid qismi bilan tanishtirish.

14. Ijrochining huquqlari:

Buyurtmachidan obyektda o'rnatilgan kirish-chiqish va ichki obyekt rejimiga rioya qilinishini talab qilish;

Mazkur shartnomani tuzish, bajarish o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujatlarni so'ra shva olish;

ko'zdan kechirish dalolatnomasida ko'rsatilgan qo'riqlash-texnika vositalarini joriy qilish bo'yicha Buyurtmachiga tavsiyalar berish.

15. Ijrochining majburiyatlari:

obyektda postlar dislokatsiyasiga muvofiq qo'riqlash naryadini joriy etish;

mazkur Shartnomada va uning ilovalariga muvofiq obyektni hamda qo'riqlashga topshirilgan moddiy qimmatliklarni qo'riqlashni tashkil etish va ta'minlash;

qo'riqlanayotgan hududdagi lekin binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatini tekshirib, qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qabul qilib olish;

obyektda kirib-chiqish va ichki obyekt rejimiga rioya etish, obyekt hududiga belgilangan tartibda moddiy qimmatliklar olib kirilishi va chiqilishini nazarat qilish;

propusk rejimi mavjud bo'lgan obyektlarda kun davomida nazoratdan o'tkazish punktidan bir martalik kirish ruxsatnomasi bilan obyektga kiritilgan tashrif buyuruvchilarining chiqib ketishini ta'minlash;

obyektni qo'riqlash vaqtida joydagi yong'in xavfsizligi qoidalaring bajarilishini ta'minlash;

obyektda yong'in chiqishi yoki yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasining ishlab ketishi holatida zudlik bilan yong'in xavfsizligi xizmatiga yoki Buyurtmachiga xabar berish;

obyektga begona shaxslarning kirib ketganligi aniqlanganda zudlik bilan Buyurtmachining vakilini chaqirish va obyektning daxlsizligini ta'minlash;

yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi ishlab ketgan holatlarda signalizatsiyaning ishlab ketish sabablarini aniqlash va obyektni qayta topshirish uchun Buyurtmachi vakilini chaqirtirish, tekshirish natijalari va obyektni qayta topshirish bo'yicha 2 (ikki) nusxada dalolatnomalar tuzish;

Ijrochining xo'dimlari tomonidan xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), quro'l-aslahalarining mavjudligini ta'minlash;

obyektni qo'riqlashga qabul qilganda va topshirganda obyektdagi texnik mustahkamlik bo'yicha va qo'riqlashning texnik vositalari bilan bog'liq aniqlangan barcha kamchiliklar haqida Buyurtmachini xabardor qilish;

Buyurtmachi bilan birgalikda har chorakda kamida 1 (bir) marta obyektning texnik jihatdan mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanishini, jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasini tekshirish ko'rigin o'tkazish, Buyurtmachi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari hamda Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda tomonlarning vakillari ishtirokida 2 (ikki) nusxada dalolatnoma tuzish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnomalarining har bir buzilishi bo'yicha Ijrochi va Buyurtmachining vakillari ishtirokida 2 (ikki) nusxada dalolatnoma tuzish va 1 (bir) nusxasini Ijrochining rahbariga tegishli choralar ko'rish uchun berish;

qo'riqlanayotgan xonalar buzilganligi yoki mulkka yetkazilgan zarar to'g'risida Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati navbatchilik qismiga va Buyurtmachiga zudlik bilan xabar berish, Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati vakili yetib kelgunga qadar hodisa yuz bergan joyning daxlsizligini ta'minlash.

5-bob. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

16. Mazkur Shartnomaning 7-bandida ko'rsatilgan summaning Buyurtmachi tomonidan o'z vaqtida xizmatlar haqini to'lamaganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda penya to'laydi.

17. Ijrochining xodimi postda asossiz ravishda bo'limganida Ijrochi Buyurtmachiga har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorda penya to'laydi, biroq bunda ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim.

18. Penyani to'lash Buyurtmachi va Ijrochini o'z majburiyatlarini buzish oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

19. Ijrochi mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida Buyurtmachiga yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi.

Ijrochining aybi bilan zarar yetkazilganligi aniqlangan hollarda zararning to'liq miqdori yoki tomonlar o'rtaida kelishilgan miqdori to'lanadi.

Zarar miqdori tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilib tasdiqlanishi shart. Zarar miqdori yuzasidan nizo mavjud bo'lganda tomonlar kelishuviga asosan ekspertlarni jalg qilish yo'li bilan aniqlanishi mumkin. Zararni qaytarish uchun, tergov yoki sud idoralarining ushbu holatlar yuzasidan chiqarilgan qarorlari asos bo'ladi.

20. Ijrochining aybi bilan zarar yetkazilganligi tomonlar vakillaridan iborat komissiya tomonidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvi xulosasi yoki kelishmovchilik mavjud bo'lgan hollarda sudning qarori bilan aniqlanishi shart.

21. Quyidagi hollarda Ijrochi zararni qoplamaydi:

ijrochi shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni to'liq bajargan bo'lishiga qaramasdan zarar uchinchi shaxslarning jinoiy harakatlari natijasida yetkazilgan bo'lsa va bu sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan tasdiqlansa;

zarar oxirgi zarurat yoki zaruriy mudofaa oqibatida yetkazilgan taqdirda;

zarar tabiiy ofat natijasida yetkazilgan bo'lsa;

qabul qilish-topshirish jurnalida qayd etilmagan mulkka zarar yetkazilganda;

buyurtmachining xodimlari tomonidan yoki ularning aybi bilan zarar yetkazilganda.

jinoymatchi tomonidan qo'riqlanayotgan xona ichida keltirilgan zarar uchun, agarda bunda jinoymatchi ushbu xonaga uni yopilishidan oldin kirgan bo'lsa va xonani qo'riqlanmaydigan vaqtda tark etgan bo'lsa;

qimmatbaho toshlardan, oltin, platina, palladiydan yasalgan buyumlar, tilla, kumush va platinali korpuslarga ega soatlar ish vaqtidan tashqarida vitrinalarda qoldirilib ketilgan bo'lsa, hamda polga maxkamlanmagan seyflar va jovonlarga joylashtirilmagan bo'lib, o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik yo'li bilan o'g'rilangan yoki o'zlashtirilgan hollarda;

tovar-moddiy boyliklar o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik yo'li bilan o'g'rilangan yoki o'zlashtirilgan hollarda; bunda ushbu o'g'rilik Buyurtmachining qo'riqlash signalizatsiyasini yoqmaganligi, obyektni qo'riqlashga topshirmaganligi yoki qo'riqlashga signalizatsiya yaxshi ishlamaganligi to'g'risida xabar bermaganligi sababli sodir etilganligi surishtiruv, tergov organlari yoki sud tomonidan aniqlanganda (agar obyektda qo'riqlash signalizatsiya vositalari o'rnatilgan bo'lsa);

tovar-moddiy boyliklar o'g'rilik va bosqinchilik yo'li bilan o'g'rilangan hollarda; bunda qo'riqlanayotgan obyektlarning texnik jihozlanganligi bilan bog'liq kamchiliklarni Xo'jalik organi tomonidan ikki tomonlama tuzilgan ko'zdan kechirish dalolatnomasi bilan belgilangan muddatlarda bartaraf qilinishi yuzasidan majburiyatlar bajarilmaganida, hamda ushbu sabablar o'g'rilik sodir etilishiga olib kelganda;

22. Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganlik uchun belgilangan neustoyka (jarima, penya) to'lash hamda zararni qoplash Tomonlarni Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

6-bob. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI.

23. Mazkur Shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buxoro tumanlari Iqtisodiy sudida hal etiladi.

7-bob. FORS-MAJOR.

24. Tomonlar ushbu Shartnomasi bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarmaslik Shartnomasi tuzilgandan keyin paydo bo'lgan, yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

25. Yengib bo'lmaydigan kuch holatiga havola qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar boshlanganligi va tamom bo'lganligi to'g'risida 2 (ikki) kun ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Ushbu muddat ichida xabar bermagan Tomon mazkur Shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida ko'rsatishga haqli emas.

Fors-major holatlariga suv toshqinlari, yer qimirlashi va boshqa tabiiy halokatlar, shuningdek epidemiyalar, yong'inlar, portlashlar, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining mazkur Shartnomasi ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan qarorlari kiradi.

26. Mazkur Shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'lmash kuch holatlari amal qilgan davrga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Agarda fors-major 3 (uch) oy davom etsa Tomonlar mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

8-bob. YAKUNIY QOIDALAR.

27. Mazkur Shartnomasi imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

28. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilganda hamda Buyurtmachi va Ijrochining vakillari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiyidir.

29. Shartnomaning amal qilish muddati quyidagicha belgilanadi:

- ho'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'yicha — Tomonlar tarafidan imzolangan kundan boshlab kamida uch yil muddatga;

30. Tomonlar mazkur shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina yoki o'ttiz kunlik muddatda javob olmagandan keyin, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin

31. **Buyurtmachi** mazkur Shartnomani muddati tugaganda bekor qilish yoki o'zgartirish haqida **Ijrochiga** Shartnomasi muddati tugashidan 30 kun oldin ma'lum qilmasa, mazkur

Shartnomaning amal qilish muddati xuddi shu muddatga va xuddi shu shartlarda **uzaytirilgan hisoblanadi**.

32. Agar texnik qo'riqlash vositalari Buyurtmachining aybi bilan ishdan chiqqan, kapital yoki joriy ta'mirlashni talab qilsa, biroq Buyurtmachi buni rad etsa, Ijrochi Buyurtmachiga 7 (yetti) kun oldin yozma ma'lum qilgan holda qo'riqlashni rad etishi va Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

33. Qo'riqlash turining, to'lov shartlari o'zgarishi ikki tomonlama qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi va ushbu-hujjat shartnomaga ilova qilinadi.

34. Ijrochi ketma-ket uch marta postda qo'riqlash tartibini buzsa, Buyurtmachi mazkur shartnomani Ijrochini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

35. Buyurtmachi ketma-ket uch marta mazkur Shartnomaning 11-bandida ko'rsatilgan to'lovnii belgilangan muddatda to'lamasa, Ijrochi mazkur shartnomani Buyurtmachini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

36. Tomonlar mazkur shartnomani muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida bir-birini o'ttiz kun oldin yozma ravishda ma'lum qiladi (yangitdan qo'riqqa olingan obyektlar bundan mustasno).

37. Obyektning xususiyatidan kelib chiqib Tomonlar mazkur Shartnomaga qonun hujjatlariga muvofiq huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi qo'shimcha bandlar kiritishlari mumkin.

9-bob. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI.

«IJROCHI»

O'zbekiston Respublikasi Milliy
Gvardiyasi Buxoro viloyati Qo'riqlash
boshqarmasi.

Manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi
10-uy

H.R. 21596000203976980001


MFO: 00017 **INN:** 202623032

Bank nomi: Markaziy bank Buxoro
viloyati boshqarmasi.

«BUYURTMAChI»

Buxoro davlat muzeyi qo'riqxonasi

Manzili: **БУХОРО ДАВЛАТ МУЗЕЙ-ҚУРНІХОНАСИ**
Бухоро шахар Абу хан кабр 2-йи
Тел./факс (65)224-21-07, 224-13-49
H.R.: № 400121860064017082200056001
MFO: СТИР: 201511624, ОҚОНК: 93131
Bank nomi: INN: Тошкент ш.Марказий банк ББХКМ
MFO: 00014 СТИР: 201122919.
МФ: 23402000300100001010
Бухоро ешлеят Газнавишлик башкармаси



Xiz. tek. 22.03.11; 221-30-11
Boshqarma MUB Boshlig'i

N.I.Sa'dullayev
Boshqarma YuG bosh yuriskonsulti

M.U.Suvonov



Bosh hisobchi:

B.B.Nasimov.